

Zahiriddin Muhammad Bobur Lirikasidagi Noan'anaviy O'xshatishlar

Fattoyeva Ruxsora Bahodir qizi¹

Annotatsiya: mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasidagi noan'anaviy o'xshatishlar tahlil etilib, shoir qo'llagan tashbehlardagi o'ziga xoslik va individuallik yoritib berilgan, boshqa ijodkorlar baytlari bilan qiyoslangan.

Kalit so'zlar: individual o'xshatish, noan'anaviy o'xshatish, an'anaviy o'xshatish, erkin o'xshatish, turg'un o'xshatish.

Badiiy tafakkurning asosiy tamoyillari o'xshatish, metafora, timsol va ramzdir. Ayonki, o'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri bo'lib, ular badiiy adabiyot tilida eng ko'p qo'llaniluvchi, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlovchi eng muhim vositadir. Muayyan xalqning madaniyatini o'zida yaqqol ifodalagan va badiiy san'atlar tizimida eng faol hisoblangan o'xshatishlarning mazmun-mohiyati, estetik qiymati, struktural-kompozitsion kabi xususiyatlarini adabiyotshunoslik va tilshunoslik aspektida o'rganish jahon filologiya fani uchun har doim dolzarflik kasb etadi. Shunga ko'ra badiiy asar tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, an'anaviy va individual o'xshatishlarni tahlil qilish ahamiyatlidir.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida o'xshatishning semantik-sintaktik, pragmatik va uslubiy jihatlari bir qator ishlarning tadqiq ob'ekti bo'lgan. Ularda, asosan, birikma yoki gap shaklidagi o'xshatish qurilmalari tadqiq etilgan.

Professor N.Mahmudovning 2011 yilda e'lon qilingan maqolasida o'zbek tilshunosligida birinchi marta o'xshatishlarning lingvokulturo-logik jihatlariga e'tibor qaratildi.

Nizomiddin Mahmudov va Durdona Xudoyberganovalarning "O'zbek tili o'xshatishlarning izohli lug'ati"da o'xshatishlarning ikki turi: 1) individual- muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar

2) umumxalq yoki turg'un o'xshatishlar farqlanishi aytilgan(5: 5).

Shoira Usmonovaning "Lingvokulturologiya" darsligida o'xshatishlarning erkin hamda turg'un turlari borligi aytilgan va ochib berilgan (2:103,104).

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtai nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmagan, ohorlilik bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat-predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalandiradi (5:6). Shularga tayangan holda, Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasidagi erkin o'xshatishlarni aniqlashga va tahlil etishga harakat qilamiz.

*Xating aro uzoring sabza ichida lola,
Ul chashmi pur xumoring loladagi g'azola.
(3: 35)*

Bayt mazmunini izohlashdan oldin notanish so'zlar ma'nosiga e'tibor qaratamiz. Xat- lab ustidagi mayin tuklar; g'azola -kiyik.

Yorning labi ustidagi mayin tuklari daladagi o't-o'langa, ular qurshovidagi yuz esa lolaga o'xshatilgan. Xumor ko'zlar esa bir qaraganda lolazor ichidagi kiyikka o'xshatilgandek. Ammo, shoir o'zining nozik

¹ BuxDu filologiya fakulteti 2- bosqich magistranti



badiiy mahoratini namoyon etib, tasvirga chuqurroq yondashgan: lola yaprog'i ichidagi yashil tugma kiyik boshiga qiyoslanib, ma'shuqaning xumor ko'zlari lola ichidagi shu yashil qismga o'xshatilgan.

Labdagi mayin tuklar orasidagi yuzni maysa ichidagi lolaga hamda purxumor ko'zlarni lolaning ichidagi o'simtga o'xshatish muallifning individual topilmasi hisoblanadi va uni erkin o'xshatish deya olamiz.

Muallif an'anaviy bo'lgan yuzni lolaga qiyoslashni boshqa g'azallarida ham qo'llagan. Xususan bu holatni "Xazon yaprog'i yanglig'..." deb boshlanuvchi g'azalda ko'rish mumkin.

*Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzing hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lola rux, bu chehrayi zardim.*
(3: 82)

Ma'shuqani, uning yuzini lolaga o'xshatish badiiy adabiyotda keng tarqalgan. Ammo yuqoridagi kabi Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasiga xos xususiy tashbehlarni boshqa ijodkorlar ijodida uchratmadik. So'zimizning isboti sifatida ba'zi adiblar qalamiga mansub misralarga e'tibor qaratamiz.

*Sakkokiyning "Otodi" radifli g'azalidan
Loladek ruxsoringga boqg'onda Sakkokiy ko'zi,
Yoshini ko'rgon kishilar jola boron otodi.*
(4 :35)

Husayniy esa ishq o'tidan dog'langan bag'rini lolaga qiyoslaydi:

*Bo'ldi gul vaqtiyu men dardu g'amida muftalo,
Ishq o'tidin loladek bag'rimda yuz dog'i balo .*
(9: 22)

Ayni shu g'azalning keyingi misralarida jomdagi may lolaga o'xshatilgan:

*Loladek may jomini tutgil g'animat, gul chog'i
Xosaikim, ishrat urdi bulbuli bedil sado.*
(9:22)

Muqimiy yor qadini tavsiflashda lolaga nisbat bergan:

*Loladek nozik badanlar kokil afshonlar chekib,
Dog'i ko'nglimda o'shal ranj-u malolingni ko'rub.*
(1: 10)

Boburning "Xating aro uzoring..." deb boshlanuvchi g'azaliga qaytsak. Ushbu g'azalning ikkinchi baytida ham o'ziga xos original tashbehn uchratishimiz mumkin:

*Barcha parilar, ey jon, girdingda zoru hayron,
Go'yo erur namoyon oy tegrasida hola.*
(3: 35)

Mazmuni: " Barcha go'zallar atrofingda zor-u hayrondir, bu go'yo oy tevaragidagi "hola", ya'ni oy gardishiga o'xshaydi". Yor barcha qizlardan a'lo, baridan ustundir. Shu tufayli markazda yor, uning atrofida qizlar turibdi, bu holat oy va uning gardishiga o'xshatilmoqda. Bizning fikrimizcha, yor va uning dugonalarini oy hamda gardishga o'xshatish Boburga xos individual topilmadir. Ammo, barchamizga ayonki, ma'shuqani oyga o'xshatish badiiy adabiyotda an'ana sifatida ko'p uchraydi.

Shoir Sayfi Saroyi o'z g'azalida bu qiyosdan foydalangan:

*Ul yuzi oykim, jahonning jonidur,
Bu zamona xublarining xonidur.*
(8: 16)



"Yoz bo'ldiyu ..." deb boshlanuvchi g'azalga e'tibor qaratamiz:

*Yoz bo'ldiyu bo'ldi yana jannat kibi yozi,
Xush ul kishikim aysh ila o'tsa qishu yozi.
(3: 59)*

Mazmuni: " Yana jannat kabi yoz kirib keldi, qish-u yozi aysh bilan o'tgan kishiga qandayin rohat".

Baytda yoz fasli jannatga o'xshatilgan. Ko'pchilik insonlar issig'i tufayli yozni yoqtirmaydilar, ammo, Bobur bu faslga ijobiy munosabat bildirib, yozni mo'min insonlar uchun eng buyuk tuhfa bo'lmish jannatga qiyoslaydi. Fikrimizcha, muallif yozning tabiatidagi yashillik, meva-chevalar mo'lligi, anhordagi zilol suv sababli bu faslni jannatga qiyoslagan va buni noan'anaviy o'xshatish deb topdik. Nizomiddin Mahmudov va Durdona Xudoyberganovanning "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"da jannatday(kabi, singari, yanglig') o'xshatishiga juda ham obod, go'zal, xushmanzara; yashnamoq, yashnatmoq, obod qilmoq ta'rifi berilgan, Kashmir, hovli, ariqdagi suv, Qrim bog'lari, Vatan jannatga qiyoslangan(5:83), ammo unda yozni jannatga o'xshatish o'rinlari mavjud emas.

"Boshda gar yo'qdur jalolat ..." deb boshlanuvchi g'azalni kōrib o'tsak:
*Sabru hushu aqlu dinimni olibdur, naylayin,
Sarv qadde, gul ruxe, rayhon xate, nasrin bare.
(3: 62)*

Mazmuni: "Sabrim, hushimni hamda aqlim-u dinimni sarv qadi, gul rux(yuz), rayhon xati(lab ustidagi mayin tuklar) nasrindek tani olibdi, men ne qilay?". Bar "badan, tan, vujud" ma'nosini anglatadi(7: 90).

Baytda o'xshatishlar qator kelgan. Sarv qad, gul rux, rayhon xat, nasrin bar. Bulardan sarv qad va gul rux o'xshatishlari an'anaviydir.

Muqimiyning "Bir kelib ketsun" radifli g'azalida qadni sarvga qiyoslash o'rni mavjud:

*Qadi sarvi sihini munfail aylib, ochib oraz,
Qilib gulni xijil choki giribon, bir kelib ketsun.
(1: 17)*

Yoki Muqimiyning " Oshiqi hayronlaring bordur" radifli g'azalida

*Xush o'lmas xotirim bog'lami sayri birla bo'lsang bas,
Ruxing - gul, zulflardin sunbul-u rayhonlaring bordur
(1: 22)*

Yuzni gulga, qadni sarvga o'xshatish badiiy adabiyotda salmoqli o'rin egallaydi. Ammo tan, vujudni nasringa o'xshatish kamdan kam uchraydi. Navoiyning bir g'azalida shunga o'xshash baytni ko'rishimiz mumkin:

*Hulla ichra badaningkim ko'runur,
Go'yo gulbarg aro nasrindur.
(6 :109)*

Bizningcha, yor qadini nasringa qiyoslash Alisher Navoiy ijodida mavjud bo'lsa ham, uni nisbatan kam qo'llaniluvchi, noan'anaviy o'xshatish deya olamiz. Xat(lab ustidagi mayin tuk)ni rayhonga mengzashga boshqa shoirlar ijodida duch kelmadik. Demak, Zahiriddin Muhammad Bobur vujudni nasringa, xatni rayhonga o'xshatib, o'ziga xos, individual tashbeh hosil qilgan. Bir baytning o'zida bir qancha o'xshatishdan foydalanib, g'azal ohangdorligini oshirgan.

"Boshda gar yo'qdur jalolat ..." deb boshlanuvchi g'azalning yana bir baytidagi o'xshatishni tahlil etamiz:

*Ganji husnida ko'rung zulfi bila gulgunasin,
Go'yiyo o't soldi har yon ganj uzra ajdare.
(3: 62)*



Mazmuni: " Go'zal husnida zulfi ila gulgun yuzini ko'ring, go'yo ajdar ganj-u xazina uzra o't sochdi".

Muallif baytning o'zini o'xshatish asosiga qurgan. Birinchi misradagi ganji husnida zulfi bila gulgunasi o'xshamish, ikkinchi misradagi o't soldi har yon ganj uzra ajdare o'xshatilmish, ikkinchimisradagi go'yiyo o'xshatish vositasi hisoblanadi. Bobur yorning yuzi hamda zulfini ganj-u xazina uzra o't sochgan ajdarga qiyoslagan. Bu o'rinda muallifning iste'dodi va badiiy estetik didiga qoyil qolmay iloh yo'q. Ma'shuqaning gulgun jamoli shunchalar go'zalki, oshiq uni ganj-xazinaga, sochlarini shu xazinani qo'riqlab turuvchi ajdahoga o'xshatadi. Bu tashbeh o'quvchining ko'z o'ngida yorqin obraz hamda ajib tasvirni gavdalantiradi, ekspressivlikni oshiradi. Bizning fikrimizcha, yuqoridagi qiyos Bobur ijodigagina xos bo'lib, individual o'xshatishdir. Shu kabi individual hamda noan'anaviy tashbehni boshqa shoirlar ijodida uchratmadik.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, buyuk shoir Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida hech kimga o'xshamagan, beqiyos tashbehlardan foydalangan va asarining badiiyatga boy, ravon, o'qishli bo'lishiga erisha olgan. G'azallarida

- labdagi mayin tuklar orasidagi yuzni maysa ichidagi lolaga hamda purxumor ko'zlarni lolaning ichidagi o'simtaga;
- yor va uning dugonalarini oy hamda oy atrofidagi gardishga;
- yozni jannatga;
- lab ustidagi mayin tuklarni rayhonga;
- tan, vujudni nasringa;
- yorning yuzi-yu zulfini ganj-u xazina uzra o't sochgan ajdarga o'xshatish kabi boshqa adiblar adabiy merosida uchramaydigan yoki nisbatan kam qo'llaniladigan noan'anaviy, individual o'xshatishlardan foydalangan. Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida erkin o'xshatishlar katta miqdorni tashkil etadi, yuqoridagi misollar bunday o'xshatishlarning kichik bir qismi xolos. Keyingi ishlarimizda ularni ham tahlilga tortishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muqimiy. Saylanma. - Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
2. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2019.
3. Бобур. Асарлар. Уч жилдлик.-Т.: Фан, 1965. I jild.
4. Мавлоно Саккокий девони. Т.: Янги аср авлоди. 2017.
5. Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. –Т.: Маънавият, 2013.
6. Навоий. Хазойин ул-маоний. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. (Нашрга Ҳамид Сулаймон тайёрлаган; масъул муҳаррир Порсо Шамсиев). –Тошкент: Фан, 1988. 4-том.
7. Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. -791 б.
8. Сайфи Саройи. Ше'рлар, Гулистон. — Т.: 1968.
9. Ҳусайн Бойқаро. Девон. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1968.

